



## TASAVVUF TA'LIMOTIDA NAFS MA'RIFATI

**Xakimov Alisher Olimjanovich<sup>1</sup>**

Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti dotsenti v.b. falsafa fanlari doktori (PhD),

**Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich<sup>2</sup>**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD).

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-16>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 06<sup>th</sup> February 2023

Online: 07<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

Hakimiya maktabi, nafs va uning darajalari, orif, ko'ngil softligi, "o'z" va "o'zlik", "men".

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada bugun globallashayotgan dunyo, tobora moddiylashib, o'z ixtiyorlarini nafs qutqusiga topshirayotgan, ongsizlik, tafakkursizlik, behayollik, buzg'unchilik, ma'naviyatsizlik botqog'iga botib borayotgan XXI-asr insonlarini kelajak haqida kengroq, chuqurroq tafakkur qilishga da'vat etadi. Bugungi kunda dunyoning juda ko'p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmogda. Bu esa yosh avlod tarbiyasida o'zining sezilarli darajadagi salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Insonlar o'zidagi nafsini tarbiyalashi insonni xayrli ishlarni amalga oshirish manbai ekanligi asoslangan.*

Tasavvuf ta'limotida "Nafs ma'rifati", ya'ni, o'z nafsini anglash va uni boshqarish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Nafsni ma'rifat etish, unga qarshi kurashish usullarini Tasavvuf ta'limotining turli tariqat va silsilalarda turli shakllarda uchratish mumkin. Masalan, Hakimiya maktabining asoschisi Hakim at-Termiziy nafs balosidan qutulish uchun Jayxun daryosi (Amudaryo) bo'yiga boradi va qo'l-oyoqlarini bog'latib, bir necha kun sohilda och-nahor yotadi. Axiyri, chanqash natijasida xushidan ketgach, behudlik holatida o'zini har tomonga urib, ag'nab daryoga tushib qoladi. Ammo kuchli bir to'lqin uning qo'l-oyog'ini yechib, yana sohilga chiqarib qo'yadi. Daryodan sog'-salomat chiqqan orif o'z nafsining naqadar kuchli raqib ekanligini anglab yetadi.

"Nafsni tahqirlash" Tasavvuf ahlining turmush va tafakkur tarziga aylangan. Ushbu ulkan ta'limotda taxminan biror bir so'fiy va orif yo'qki, nafsini mazammat va malomat qilmagan bo'lsa. Jumladan Imom Abdurahmon Sulaymiyning keltirishicha: Muhammad Ahmad Bag'dodiy aytadi: "Kim so'fiylarga suhbatdosh bo'lsa, ularga nafs hohishsiz, qalbsiz va ixtiyorsizlik bilan ergashsin. Bas, kmda nafs nasibasi va talablariga nazar tashlashi bo'lsa, bular naqsadiga yetishida monelik qiladi"[1:B.5]. Tasavvuf ta'limotida Nafs ma'rifati deyilganda Borliqni bilib olishning birinchi bosqichi, boshqacha ta'bir bilan aytganda, Allohni ma'rifat etishning birinchi sharti hisoblanadi.

Nafsni mahqur etish (tahqirlash), uni shayton vasvasasi deb bilish Tasavvufning ilk namoyandalaridan boshlab to so'nggi vakillarining turmush va tafakkur tarzida kuzatiladi. Masalan, Shayx Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo"sida bergan ma'lumotga ko'ra Shayx Junayd Bag'dodiy Tasavvufni shunday ta'riflagan ekan: "Tasavvuf ko'ngil softligi, nafs talabidan



voz kechish, ruhoniyyat sifatlarini kasb etish va haqiqat (Alloh) ilmlaridan voqif bo'lishdir" [2:B.341].

Abu Homid G'azzoliy "Kimiyo saodat" asarida "ma'rifat" – bilishni to'rt qismga ajratgan:

1. Nafs ma'rifati, 2. Alloh ma'rifati, 3. Dunyo ma'rifati, 4. Oxirat ma'rifati.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, nafsini ma'rifat etmasdan, uning haqiqatiga yetmasdan turib Allohni ma'rifat etib bo'lmaydi. Nafs ma'rifati masalasi ham boshqa ko'pgina masalalar qatori Tasavvuf ta'limotiga Islomdinidan kirib kelgan. Nafs va uning ma'rifati haqida ham Qur'oni Karimdan, ham Hadisi sharifdan ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, Qur'oni Karimda nafsning bir necha turi zikr etilgan:

1. Nafsi ammora (gunoh va yomonlikka sababchi bo'ladigan nafs). – "Yusuf" surasi, 53-oyat.
2. Nafsi lavvoma (malomat qiluvchi nafs). – "Qiyomat" surasi, 2-oyat.
3. Nafsi mulhima (vasvasa qiluvchi nafs). – "Qof" surasi, 16-oyat.
4. Nafsi mutmayyinna (sokin nafs). – "Fajr" surasi 27-oyat.

Rasululloh (s.a.v.)ga nisbat beriladigan bir qancha hadisda nafs ma'rifati haqida so'z boradi. Keltiriladiki, u kishidan:

- Parvardigorni tanimoqning qanday yo'li bor, - deb so'raganlarida:
- Ma'rifat un-nafsi, ya'ni: nafs ma'rifati, - deya javob bergan ekanlar. Yana bir xabarda bir jangdan qaytayotgan chog'larida Rasululloh buyuradilar: Ya'ni: *Qayturmiz kichik jihoddan ulug' jhodga.*

U kishidan so'raydilar:

Yo Rasululloh, "jihodi akbar" nedur?

Hazrati Rasuli akram (s.a.v.) bu savolga shunday javob bergan ekanlar:

O'z nafsing bilan kurashmoq (jihod qilmoq).

Mavlono Jaloliddin Rumi shu hadisni "Masnaviy ma'naviy"da quyidagicha bayon etadi: Ya'ni *Ey eranlar, biz tashqi dushmanni o'ldirdik, lekin ichkarida undan-da yomonroq dushman qoldi.*

Rasuli akram (s.a.v.)ga nisbat beriladigan mashhur bir hadis qudsiyda "Man 'arafa nafsahu faqad 'arafa rabbahu". Ya'ni: O'z nafsini tanigan kishi Robbini taniydi.

Ba'zi muhaqqiqlar bu hikmatni Ali ibn Abutolibga ham nisbat beradilar. Holbuki, kutubi so'fiya, ya'ni Tasavvufga oid ilmiy-nazariy asarlarning ilk namunalaridan bo'lmish Hujviriyning "Kashf ul-mahjub", Shayx Shahobiddin Suhravardiyning "Bo'ston ul-qulub" asarlarida bu hadis Rasuli akram (s.a.v.)ga nisbat beriladi. Tasavvuf tabiatiga mos bo'lgan bu hadis tariqat ahlining eng sevimli shoriga aylangan. Bu hadisda "nafs" so'zi "o'z" va "o'zlik" ma'nosini ham bildiradi.

O'zini tanigan kishi Allohni ham taniydi. Har ikkala mazmunning mohiyati bir: Inson o'z vujudidagi "Men"ni tanimasdan turib Allohni taniyolmaydi. Inson kabir olam ichida sag'ir olam hisoblanib, o'z vujudida kabir olam xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Demak, Mutlaq haqiqatni, Borliqni anglash uchun birinchi navbatda u o'zining ichki olamiga murojaat etishi, o'zini kimligi-yu nimaligi, qayerdan kelganligi-yu qayerga ketishini chuqur anglab yetishi lozim.

O'zini anglab yetgan inson, albatta, jabru zulm, kibru havo, nafratu g'azab, hirsu havas, buxlu hasad, ginayu adovat, tuhmatu g'iybat... kabi nafsga taalluqli bo'lgan razil xislatlardan nafratlanib, ilmu marifat, muhabbatu sadoqat, sulhu safo, xayru saxovat, sabri qanoat... kabi



axloqi hamida xislatlar mazhariga aylanadi. Ana shunday insongina Allohning borligi va birligini ma'rifat etishga qodir bo'lib chiqadi,

Lisonulg'ayb Hoja Hofis Sheroziy nafs bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "o'zlik" – "menlik" tushunchasini banda va Alloh o'rtasidagi hijob deb ataydi.

Imom Muhammad G'azzoliy "Ravzat ut-tolibin" nomli risolasida: Ya'ni: "Tasavvufning usuli bilan rizqlanish (oziqlanish), axloqda, amallarda, ishlar va Sunnatda Rasululloh (s.a.v.)ga iqtido qilishdir".

Nafs ma'rifatida asosiy o'rinni tavba egallashini qayd etish kerak. Tavba – qaytish demak, ya'ni kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytish. Tavbani bobul avbob – eshiklarning eshigi ham deydilar, chunki tariqatga qadam qo'ygan odamning niyati va mohiyati avvalo shu tavbasida ayonlashadi. Tavbaning haqiqati shuki, solik Xudoga yetishish yo'liga g'ov bo'ladigan jamiki narsalardan qaytishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Allohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi. Tavba kufrdan, shariat man' etgan nahyi va yomon ishlardan qaytash, zamima axloqdan hamida axloqqa qaytish, Haqning g'ayri bo'lgan narsalardan qaytish kabilarni o'z ichiga oladi. Tavbaning mohiyati o'z nuqsonlarini ko'ra bilish, o'zining ahvolini anglash, qabih ishlar, qabih fe'l va qabih fikrdan qaytish, dunyoning ma'nisizligi, arzimasligini anglab, zulmu adolatsizlikdan qaytishni ham bildiradi. Qo'rquv tavbasi, gunohga iqror bo'lish – oddiy odamlarga xos. So'fiylar tavbasi qalb istijobi, ya'ni – uzilish, o'zgarish tavbasidir [3:25].

Tasavvuf ahli bilishning falsafiy yo'llari – tasavvur, his, mantiqiy tafakkur va hokazolarni ham eslab o'tadilar. Biroq ularning fikricha, aqliy-hissiy bilish zohiriy – dunyoviy bilimga kifoya qiladi, xolos. Ilohiyotni anglash uchun esa aql ojizdir. Ilohiyot ilmi aqlga sig'maydigan, aql o'lchovlaridan baland turadigan ilmdir. Ibn Arabiy aytadiki, Xudo haqida ham aql tili bilan gapirish mumkin, lekin aql kuchi bilan Uni bilish mumkin emas. Aql isbotni talab qiladi, dalil – tajriba bilan ish ko'radi. Vaholanki, Xudoning borligi, zotu sifatlarini dalil orqali isbotlash mushkul. «Ma'rifat Haq tomonidan yuboriladi. Bu mening fikrim emas, balki ilohiy ilhomdir», deb yozadi Ibn Arabiy. Alloh bilan xilvatda qolgan mard insonda shunday xolat yuz beradiki, unda ilmlardan ilhom paydo bo'lib, Uning rahmati bilan yuksaladi. Darveshdagi bu holat oddiy odamlar va isbot-dalil ahli uchun qorong'idir. Bu avliyolarga yuboriladigan laduniy bilim. Boyazid Bistomiy kalom ahliga qarab degan ekan: «Siz o'z ilmlaringizni jonsiz narsalardan olasiz, biz esa abadiy tirik Zotdan olamiz». Boyazid jonsiz narsalar deb moddalar-ashyolarni nazarda tutadi. Laduniy – rabboniy bilim Xo'ja Xizrning bilimiga qiyos etgulik. Xo'ja Xizr hayot suvi – abadiy tiriklik suvini ichgach, u hamma voqeadan, hamma ahvoldan, hamma kechinmalardan xabardor; narsalar hosiyati va qonuniyatini oldindan biladi, Xudo unga o'z bilimini tuhfa etgan[4].

Xulosa qilib aytganda ma'rifatdan uzoqlashgan har qanday jamiyatning halolati muqarrar. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali jahon hamjamiyatida o'zining boy tarixi, tunganmas ma'naviy xazinasi bilan o'z o'rnini mustahkamlayotgan O'zbekiston uchun ma'rifat yanada muhim ahamiyat kasb etadi.



### References:

1. Имом Абдурахмон Сулаймий. Тасаввуф ва унинг ҳақиқати ҳақида Муқаддима. Таржимон ва изоҳла муаллифи: Абдулҳамид Муҳаммад Турсун. –Тошкент.: «HILOL-NASHR», 2020. –Б.5.
2. Фаридиддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. Таржимон М.Ҳасаний ва б. –Тошкент.: «Ғофур Ғулом», 2020. –Б.341.
3. Абулфатҳ Шахристоний. Милал ва ниҳал. 1-жилд. – Қоҳира. 1987. – С. 23.
4. Маҳмуд Асъад Жўшон. Тасаввуф ва гўзаллик. – Т.: “Адолат”, 2004.
5. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ-ЎЗ-ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 167-173.
6. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
7. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *Conferencea*, 197-201.
8. Absattorov, B. M. (2019). Spiritual And Moral Development Of The Person In Modern World. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 4(2), 167-173.
9. Mamarasulovich, A. B. (2023, January). YOSH AVLODNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH-XALQIMIZ TARBIYAVIY AN'ANALARINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI SIFATIDA. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 273-281).
10. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2021). Баркамол ёшларни тарбиялашда маънавий-ахлоқий мезон ва меъёрларнинг ўрни. *АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ХАБАРНОМА*.
11. Olimjanovich, X. A. (2023, January). МОНИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА ТАСАВВУФ ЎЗИГА ХОС ЎХШАШЛИК ВА ФАРҚЛАР. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 244-251).
12. Nazarovich, S. A., & Olimjanovich, X. A. (2022). FEATURES OF PREVENTING METAMORPHOSIS OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE VIRTUALIZATION OF PUBLIC LIFE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
13. Sanakulov, A. N. (2019). MAINTENANCE OF THE WORLD OUTLOOK SECURITY IN THE INFORMATION SOCIETY. *Социосфера*, (4), 54-57.
14. Санакулов, А. Н. (2022, January). ВЫРАБОТКА ИНФОРМАЦИОННОГО ИММУНИТЕТА-КАК ЗАЛОГ ПОВЫШЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ЛЮДЕЙ. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 2, No. 1).
15. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ-ЎЗ-ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 167-173.
16. Khakimov, A. (2021). THE ROLE OF POLITICAL AND LEGAL CULTURE IN ENSURING CIVIC RESPONSIBILITY IN SOCIETY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.2 Historical sciences).
17. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
18. Қаххорова, М. (2022). БИОЭТИКА ИНСОН ҲАЁТИЙ ФАОЛИЯТИНИНГ АМАЛИЙ ФАЛСАФАСИ СИФАТИДА. NamDU.



19. Qaxxorova, M. (2022). ЖАДИДЧИЛИК ТАЪЛИМОТИДА ЖАМИЯТ МУҲИТИНИ АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Теория и практика современной науки.
20. Qaxxorova, M. (2022). Ma'naviy tarbiya strategiyasi. Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа.
21. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *Conferencea*, 197-201.
22. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
23. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ-ЎЗ-ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙЎЛИ СИФАТИДА. *Gospodarka i Innowacje.*, 30, 167-173.
24. Абсатторов, Б. (2019). ШАХС МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ БАРКАМОЛЛИГИ МЕЗОНЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
25. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. В. (2020). ИНСОН ФАОЛИЯТИДА АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ. *Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха*.
26. Mukhammadievich, K. J., & Mamarasulovich, A. B. (2022). POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONFLICT OF PHILOSOPHY AND SUFISM. *Conferencea*, 46-56.
27. Mukhammadievich, K. J., Mamarasulovich, A. B., & Olimjanovich, X. A. (2022, December). THE POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONTROVERSY OF THE HISTORY OF PHILOSOPHY AND SUFISM. In *E Conference Zone* (pp. 17-25).
28. Abdukarimovna, K. G. (2022). YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIK VANUQUQBUZARLIK LARNI OLDINI OLISH DOLZARB MASALA.
29. Каримова, Г. А. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ЖАМИЯТ МАЪНАВИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАҲДИДЛАР. ILM-FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY QARASHLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR, 3, 13-15.
30. Каримова, Г. (2023, January). ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МАФКУРАВИЙ ЭҲТИЁЖНИНГ ОРТИШИ. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 1, pp. 293-303).
31. Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich. (2023). YOSH AVLODNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH-XALQIMIZ TARBIYAVIY AN'ANALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI SIFATIDA. *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*, 2(1), 273-281.
32. Каххарова, М. М. (2000). Ворислик халк одоб кадриятларини шакалмантиришнинг мухим омили.